FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11(1)-son

UDK: 159.923.2:37.015.3

Qodirova Odina Djurabayevna,
Andijon davlat universiteti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi professori v.b.

TA’LIM JARAYONIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada emotsional intellektni rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillar, xususan, oiladagi psixologik iqlim, oilaviy muhit, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar, ota-onalarning farzandlariga munosabati, xavfsizlik hissi va mas’uliyatning shaxs rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim jarayonida talabalarning emotsional intellektini rivojlantirishning psixologik asoslari, hissiy-emotsional sohaning o‘ziga xos xususiyatlari, hissiyotlarning inson psixikasi va xulq-atvoriga ta’siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot doirasida N. Xoll tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellektni baholash metodikasi yordamida 610 nafar talabaning emotsional intellekti oilaviy tarkib xususiyatlari kesimida o‘rganilgan. Olingan natijalar asosida emotsional intellektning asosiy tarkibiy mezonlari hamda uni ta’lim jarayonida rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik omillar yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, hissiy aloqa, hissiyotlarni boshqarish, hayotiy tajriba, ta’lim-tarbiya, oilaviy muhit, ijtimoiy muhit, empatiya, o‘z-o‘zini anglash, o‘quv faoliyati.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В статье анализируются психологические факторы, влияющие на развитие эмоционального интеллекта, в частности психологический климат в семье, особенности семейной среды, взаимоотношения между членами семьи, отношение родителей к детям, формирование чувства безопасности и ответственности. Рассматриваются психологические основы развития эмоционального интеллекта студентов в образовательном процессе, особенности их эмоциональной сферы, а также влияние эмоций на психику и поведение человека. В рамках исследования с использованием методики оценки эмоционального интеллекта Н. Холла изучены особенности эмоционального интеллекта 610 студентов в зависимости от структуры семьи. На основании полученных эмпирических результатов определены основные компоненты эмоционального интеллекта и психологические факторы, способствующие его развитию в образовательной среде. Особое внимание уделяется роли семейного воспитания и психологически благоприятной образовательной среды в формировании эмоциональной компетентности студентов.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, эмоциональное общение, управление эмоциями, жизненный опыт, образование и воспитание, семейная среда, социальная среда, эмпатия, самосознание, учебная деятельность.

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING EMOTIONAL INTELLIGENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article examines the psychological factors influencing the development of emotional intelligence, particularly the psychological climate within the family, family environment, relationships among family members, parental attitudes toward children, and the formation of a sense of security and responsibility. It explores the psychological foundations of developing students' emotional intelligence in the educational process, the specific characteristics of their emotional sphere, and the influence of emotions on human psychological processes and behavior. As part of the study, the emotional intelligence of 610 university students was examined according to family structure using N. Hall's Emotional Intelligence Assessment Methodology. Based on the empirical findings, the main components of emotional intelligence and the psychological factors contributing to its development in the educational environment were identified. Particular attention is given to the role of family upbringing and a psychologically supportive educational environment in developing students' emotional competence.

Keywords: emotional intelligence, emotional communication, emotion regulation, life experience, education and upbringing, family environment, social environment, empathy, self-awareness, learning activities.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti uchun intellektual salohiyatga ega, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etadigan hamda o‘z hissiy kechinmalarini boshqara oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida sodir bo‘layotgan jadal o‘zgarishlar insonning nafaqat intellektual, balki emotsional-psixologik holatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada stress, xavotir, qo‘rquv, o‘ziga ishonchsizlik, hissiy beqarorlik va shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash, ularni nazorat qilish va boshqalarning emotsional holatini tushunish qobiliyati muhim psixologik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qobiliyatlar majmui emotsional intellekt tushunchasi bilan ifodalanadi. Emotsional intellekt shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash, ularning kelib chiqish sabablarini tushunish, hissiy holatlarni boshqarish, shuningdek, boshqa insonlarning emotsional kechinmalarini idrok etish va ular bilan samarali munosabat o‘rnatish imkoniyatlarini qamrab oladi. Shu jihatdan emotsional intellekt shaxsning ijtimoiy moslashuvi, kasbiy faoliyati, muloqot madaniyati va hayotiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi.

Shaxsning emotsional rivojlanishida oila va ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zaro uzviy bog‘liq tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bola dastlabki hissiy tajribalarni oilada egallaydi. Oiladagi psixologik muhit, ota-onalarning o‘zaro munosabatlari, farzandlarga nisbatan mehr, e’tibor va talabchanlik darajasi uning emotsional rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Keyinchalik ta’lim muassasasida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar, o‘quv faoliyati, pedagogik muloqot va jamoaviy hamkorlik ushbu qobiliyatlarning rivojlanishini davom ettiradi.

Oliy ta’lim muassasasiga qadam qo‘ygan har bir talaba muayyan oilaviy muhitda shakllangan shaxs sifatida o‘zining individual psixologik xususiyatlari, hissiy tajribasi va munosabatlar tizimiga ega bo‘ladi. Shu sababli talabalarning emotsional intellektini rivojlantirishda ularning oilaviy tarbiya sharoitlarini ham hisobga olish zarur.

Tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarda emotsional intellektning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi oilaviy hamda ta’limiy-psixologik omillarni aniqlash, shuningdek, emotsional intellekt tarkibiy mezonlarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini empirik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Emotsional intellektning shakllanishi va rivojlanishi masalasi zamonaviy psixologiya fanida shaxsning individual xususiyatlari, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit va ta’lim jarayoni bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Mazkur muammoning nazariy asoslari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar, jumladan, V. Karimova, B. Shoumarov, N. Safoyev, F. Akromova, L.S. Vigotskiy, A.Ya. Varga, O.A. Karabanova, K.M. Bouen va K. Uitakerlarning ilmiy qarashlarida o‘z aksini topgan.

Oilaviy muhitning bola shaxsiga ta’sirini o‘rgangan tadqiqotlarda oiladagi psixologik iqlim, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi hissiy yaqinlik, o‘zaro ishonch va qo‘llab-quvvatlash munosabatlari alohida ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Oiladagi hissiy munosabatlar bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, boshqalarga munosabati, hissiyotlarni anglash va ularni boshqarish qobiliyatining shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, shaxsning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida amalga oshadi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, bolaning emotsional rivojlanishini ham ijtimoiy tajriba, muloqot va hissiy aloqalardan ajratib o‘rganish mumkin emas.

O.V. Xuxlaevaning tadqiqotlariga oid qarashlarda oilada kattalarning o‘z hissiyotlarini anglab, ularni ochiq va samimiy namoyon eta olishi bolalarda emotsional tushunish va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam berishi qayd etiladi. Bunday oilaviy munosabatlar bolada xavfsizlik hissini mustahkamlaydi. Natijada bola o‘z kechinmalarini erkin ifodalash, fikr va hissiyotlarni farqlash hamda boshqa insonlarning holatini tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

B.G. Ananev insonning hayotiy va mehnat sharoitlari nafaqat intellektual, balki hissiy-emotsional rivojlanish uchun ham muhim ekanligini ta’kidlaydi. Uning qarashlari shaxs rivojlanishida intellektual va emotsional jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini asoslashga xizmat qiladi.

V.N. Kolesnikov tadqiqotlarida o‘quv faoliyati bilan bog‘liq emotsional omillar, xususan, imtihon jarayonida yuzaga keladigan psixologik zo‘riqishlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, imtihon sharoitida talabalar o‘zlarining indi-

vidual xususiyatlari va intilish darajasiga muvofiq quvonch, yengillik, norozilik, tushkunlik, xavotir va chorasizlik kabi turli hissiy holatlarni boshdan kechiradilar. Bu esa o‘quv faoliyatida emotsional boshqaruv ko‘nikmalarining ahamiyatini ko‘rsatadi.

G.V. Bulanova talabalarning emotsional holatini ularning o‘quv muvaffaqiyati bilan bog‘liq holda o‘rganib, hissiy jarayonlarning faoliyat samaradorligiga ta’sirini yoritgan. Uning qarashlariga ko‘ra, emotsional soha muvaffaqiyatli faoliyatni rag‘batlantirish, xulq-atvorni tartibga solish, axborotlarni baholash va kutilmagan vaziyatlarga moslashish kabi funksiyalarni bajaradi.

Y.D. Kolominskiy esa o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga intiluvchi talabalar faoliyatida qat’iyatlilik, tashabbuskorlik, maqsadga yo‘naltirilganlik va istiqbolni rejalashtirish xususiyatlari namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Ushbu sifatlar emotsional intellektning motivatsion va o‘zini boshqarish komponentlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt shaxsning tug‘ma yoki o‘zgarmas xususiyati emas, balki oilaviy tarbiya, hayotiy tajriba, ijtimoiy muloqot va ta’lim jarayoni ta’sirida takomillashib boradigan murakkab psixologik tizimdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda talabalarning emotsional intellektini oilaviy muhit va oila tarkibi bilan bog‘liq holda o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxs rivojlanishining ijtimoiy-madaniy yondashuvi, faoliyat va muloqotning psixologik qonuniyatlari hamda emotsional intellektning tarkibiy tuzilishiga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, ilmiy manbalarni o‘rganish, psixodiagnostik metodika, guruhlararo qiyosiy tahlil va matematik-statistik umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Talabalarning emotsional intellekt darajasini aniqlash maqsadida N.Xoll tomonidan ishlab chiqilgan «Emotsional intellektni baholash» metodikasi qo‘llanildi. Mazkur metodika emotsional intellektning beshta asosiy tarkibiy mezonini aniqlashga imkon beradi:

1. O‘z emotsiyalarini anglash – shaxsning o‘z hissiy holatlarini tanishi, tushunishi va ularning sabablarini idrok etishi.

2. O‘z emotsiyalarini boshqarish – hissiy kechinmalarni nazorat qilish, ularning namoyon bo‘lishini tartibga solish va vaziyatga mos ravishda boshqarish.

3. Shaxsiy motivatsiyani shakllantirish – ichki rag‘bat, maqsadga intilish, qat’iyatlilik va o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyati.

4. Boshqa insonlarning emotsiyalarini aniqlash (empatiya) – atrofdagilarning hissiy holatini tushunish, ularning kechinmalariga hamdardlik bildirish va munosabatga kirishish.

5. O‘zaro munosabatlarni boshqarish – muloqot jarayonida hissiy holatlarni hisobga olish, ijtimoiy aloqalarni samarali tashkil etish va shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirish.

Tadqiqotda nazorat va tajriba guruhlariga saralangan jami 610 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilarning emotsional intellekt ko‘rsatkichlari jinsi, ta’lim kursi va oilaviy tarkibi kesimida o‘rganildi. Oilaviy tarkib xususiyatlariga ko‘ra respondentlar to‘liq oilada tarbiyalanganlar, noto‘liq oilada tarbiyalanganlar, ko‘p farzandli oilalardan bo‘lganlar va yakka farzandli oilalardan bo‘lganlar guruhlariga ajratildi.

Olingan ma’lumotlar umumlashtirilib, har bir oilaviy guruhda emotsional intellektning beshta mezoni bo‘yicha qayd etilgan natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari 1-jadvalda aks ettirilgan.

NATIJALAR

Tadqiqot doirasida 610 nafar talabaning N. Xoll metodikasi asosida aniqlangan emotsional intellekt ko‘rsatkichlari oilaviy tarkib xususiyatlari bo‘yicha tahlil qilindi. Olingan natijalar emotsional intellektning tarkibiy mezonlari turli oilaviy guruhlarda bir xil darajada namoyon bo‘lmasligini ko‘rsatdi.

1-jadval. Talabalarda emotsional intellekt mezonlarining oilaviy tarkib bo‘yicha namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari (n=610)

Emotsional intellekt mezonlari	To‘liq oila (n=290), %	Noto‘liq oila (n=85), %	Ko‘p farzandli oila (n=160), %	Yakka farzandli oila (n=75), %
O‘z emotsiyalarini anglash	28,4	16,3	16,1	20,1
O‘z emotsiyalarini boshqarish	18,2	33,1	12,5	14,6
Shaxsiy motivatsiyani shakllantirish	16,2	25,2	29,8	22,5
Boshqa insonlarning emotsiyalarini aniqlash (empatiya)	26,1	11,1	16,9	12,2
O‘zaro munosabatlarni boshqarish	11,1	14,3	24,7	30,6
Jami	100	100	100	100

Izoh: jadvaldagi foizlar muallif tomonidan taqdim etilgan dastlabki empirik ma’lumotlar asosida keltirildi.

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, «O‘z emotsiyalarini anglash» mezoni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich to‘liq oilada tarbiyalangan talabalarda kuzatilib, 28,4 foizni tashkil etdi. Yakka farzandli oilalardan bo‘lgan talabalarda ushbu ko‘rsatkich 20,1 foiz, noto‘liq oilalarda 16,3 foiz, ko‘p farzandli oilalarda esa 16,1 foizga teng bo‘ldi. Mazkur natijalar to‘liq oilada tarbiyalangan talabalarda o‘z hissiy kechinmalarini anglash va ularni tahlil qilish ko‘rsatkichlari nisbatan yuqoriligini namoyon etadi.

«O‘z emotsiyalarini boshqarish» mezoni bo‘yicha eng yuqori natija noto‘liq oilalarda tarbiyalangan talabalar guruhida qayd etildi va 33,1 foizni tashkil qildi.

To‘liq oilalarda ushbu ko‘rsatkich 18,2 foiz, yakka farzandli oilalarda 14,6 foiz, ko‘p farzandli oilalarda esa 12,5 foiz bo‘ldi. Bu natija mazkur guruhdagi talabalarning hissiy holatlarini nazorat qilish va boshqarish ko‘nikmalari nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu farqning sabablarini faqat oilaning to‘liq yoki noto‘liqligi bilan izohlash to‘g‘ri emas. Bunda tarbiya uslubi, ota-onaning hissiy qo‘llab-quvvatlashi, mustaqillik darajasi va individual psixologik xususiyatlarni ham hisobga olish lozim.

«Shaxsiy motivatsiyani shakllantirish» mezoni bo‘yicha ko‘p farzandli oilalarda tarbiyalangan talabalar eng yuqori natijani ko‘rsatdi. Ushbu ko‘rsatkich 29,8 foizni tashkil etib, noto‘liq oilalarda 25,2 foiz, yakka farzandli oilalarda 22,5 foiz, to‘liq oilalarda esa 16,2 foizni tashkil qildi. Ko‘p farzandli oilalarda bolalarning kundalik hayotda o‘zaro hamkorlik qilishi, mustaqil qaror qabul qilishi va oilaviy mas’uliyatni his etishi motivatsion sifatlarning shakllanishiga yordam beruvchi omillar sifatida qaralishi mumkin.

«Boshqa insonlarning emotsiyalarini aniqlash» yoki empatiya mezoni bo‘yicha to‘liq oilalarda tarbiyalangan talabalar 26,1 foizlik ko‘rsatkich bilan yetakchi o‘rinni egalladi. Ko‘p farzandli oilalarda ushbu ko‘rsatkich 16,9 foiz, yakka farzandli oilalarda 12,2 foiz, noto‘liq oilalarda esa 11,1 foizni tashkil etdi. Mazkur natijalar oiladagi hissiy yaqinlik, o‘zaro hamdardlik, ota-onalarning farzandlar bilan muloqoti va oilaviy qo‘llab-quvvatlash muhitining empatik qobiliyatlar rivojlanishidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

«O‘zaro munosabatlarni boshqarish» mezoni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich yakka farzandli oilalardan bo‘lgan talabalarda qayd etilib, 30,6 foizni tashkil qildi. Ko‘p farzandli oilalarda ushbu ko‘rsatkich 24,7 foiz, noto‘liq oilalarda 14,3 foiz, to‘liq oilalarda esa 11,1 foizga teng bo‘ldi. Bu natijalar yakka farzandli oilalarda tarbiyalangan talabalarning muloqot jarayonida boshqa insonlarning hissiy holatini hisobga olish, munosabatlarni muvofiqlashtirish va ijtimoiy aloqalarni boshqarish ko‘nikmalari nisbatan yuqori namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, empirik natijalar emotsional intellektning turli tarkibiy qismlari oilaviy guruhlar kesimida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Har bir guruhda muayyan mezonning yuqori natija berishi oilaviy muhitning ko‘p qirrali ta’sirini anglatadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari emotsional intellektning rivojlanishida oilaviy muhit va ta’lim jarayonining o‘zaro aloqadorligini tasdiqlovchi muhim empirik ma’lumotlarni taqdim etadi. Oila shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti sifatida hissiy munosabatlar, o‘zaro ishonch, empatiya va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining shakllanishiga zamin yaratadi. Biroq olingan natijalar oilaning tarkibiy tuzilishini emotsional intellektning yagona belgilovchi omili sifatida talqin qilish imkonini bermaydi. Chunki oilaning psixologik muhiti, tarbiya uslubi, ota-

onalarning emotsional savodxonligi va farzandlar bilan muloqot sifati ham muhim ahamiyatga ega.

To‘liq oilalarda tarbiyalangan talabalarda o‘z emotsiyalarini anglash va empatiya ko‘rsatkichlarining yuqoriligi oiladagi hissiy qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday muhitda bola o‘z hissiyotlarini erkin ifodalash, boshqa insonlarning kechinmalarini kuzatish va ularga munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, to‘liq oilaning mavjudligi o‘z-o‘zidan ijobiy psixologik muhitni kafolatlamasligini ham e’tiborda tutish lozim.

Noto‘liq oilalarda tarbiyalangan talabalarda emotsiyalarni boshqarish mezonining yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi alohida e’tiborga molik. Ushbu holat ayrim talabalarda mustaqillik, mas’uliyat va o‘z hissiy holatini nazorat qilishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, bunday xususiyatlarni barcha noto‘liq oilalarda tarbiyalangan talabalarga xos deb umumlashtirish mumkin emas. Har bir shaxsning rivojlanishida individual tajriba va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi muhim rol o‘ynaydi.

Ko‘p farzandli oilalarda tarbiyalangan talabalarda shaxsiy motivatsiyaning yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishi oilaviy hamkorlik, o‘zaro raqobat, mas’uliyatni taqsimlash va mustaqil faoliyat yuritish tajribasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yakka farzandli oilalardan bo‘lgan talabalarda o‘zaro munosabatlarni boshqarish ko‘rsatkichining yuqoriligi esa ijtimoiy muloqot tajribasi, ota-onalar bilan munosabatlar va tashqi ijtimoiy muhit ta’sirida shakllangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Ta’lim jarayoni emotsional intellektni rivojlantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Chunki talaba oliy ta’lim muassasasida turli xarakter, dunyoqarash va hissiy xususiyatlarga ega insonlar bilan muloqotga kirishadi. Jamoaviy topshiriqlar, munozaralar, mustaqil ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar va nazorat jarayonlari uning o‘z hissiyotlarini boshqarish hamda boshqalarning emotsional holatini tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, imtihon va nazorat jarayonlarida yuzaga keladigan stress, xavotir va ruhiy zo‘riqishlar talabaning o‘quv faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Salbiy hissiy holatlar diqqatni jamlash, xotira, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlariga to‘sqinlik qilishi ehtimoli mavjud. Shu sababli ta’lim jarayonida talabalarga emotsional o‘zini boshqarish, stressga bardoshlilik va muammoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish ko‘nikmalarini o‘rgatish zarur.

Emotsional intellektni rivojlantirishda pedagogning psixologik kompetentligi ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik muloqotda hurmat, ishonch, empatiya va psixologik xavfsizlik muhitining ta’minlanishi talabalarning o‘z fikrini erkin ifodalashi va hissiy kechinmalarini anglashiga yordam beradi. Shuningdek, refleksiv mashqlar, rolli o‘yinlar, guruhiy muhokamalar, psixologik treninglar va vaziyatli topshiriqlardan foydalanish emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi.

Demak, emotsional intellektni rivojlantirishda oilaviy tarbiya va oliy ta’lim muassasasidagi psixologik-pedagogik sharoitlar bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida qaralishi lozim. Talabaning emotsional rivojlanishini ta’minlash uchun uning individual xususiyatlari, oilaviy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va ta’limiy ehtiyojlarini yaxlit holda hisobga olish maqsadga muvofiq.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy va empirik tahlillar asosida talabalarda emotsional intellektning shakllanishi hamda rivojlanishi murakkab, ko‘p omilli psixologik jarayon ekanligi aniqlandi. Uning rivojlanishida oilaviy muhit, ota-onalarning tarbiya uslubi, hissiy qo‘llab-quvvatlash, shaxslararo munosabatlar, hayotiy tajriba va ta’lim jarayonining o‘zaro ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi.

N. Xoll metodikasi asosida 610 nafar talaba ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari emotsional intellektning tarkibiy mezonlari oilaviy guruhlar kesimida turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Jumladan, o‘z emotsiyalarini anglash va empatiya ko‘rsatkichlari to‘liq oilalarda tarbiyalangan talabalarda, emotsiyalarni boshqarish ko‘rsatkichi noto‘liq oilalarda tarbiyalangan talabalarda, shaxsiy motivatsiya ko‘rsatkichi ko‘p farzandli oilalarda, o‘zaro munosabatlarni boshqarish ko‘rsatkichi esa yakka farzandli oilalarda nisbatan yuqori ekanligi qayd etildi.

Tadqiqot natijalari oilaviy tarkibning o‘zi emotsional intellekt darajasini to‘liq belgilab bermasligini, bunda oiladagi psixologik iqlim, hissiy munosabatlar, farzandlarning mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro muloqot madaniyati muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Emotsional intellektning rivojlanishi talabalarning nafaqat shaxsiy, balki kasbiy faoliyatida ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish, empatiya, tolerantlik, hissiy barqarorlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish va samarali muloqot ko‘nikmalari bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim psixologik sifatlar hisoblanadi.

Oliy ta’lim jarayonida emotsional intellektni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

talabalarda o‘z hissiy holatlarini anglash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

emotsiyalarni boshqarish va stressli vaziyatlarda psixologik barqarorlikni saqlashga o‘rgatish;

empatiya, tolerantlik va o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot madaniyatini shakllantirish;

jamoaviy faoliyat va hamkorlikka asoslangan mashg‘ulotlar orqali shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish;

ta’lim jarayonida psixologik xavfsizlik, ishonch va ijobiy emotsional muhitni ta’minlash;

talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash.

Shunday qilib, emotsional intellektni rivojlantirish oilada boshlangan hissiy-ijtimoiy tajribaning ta’lim jarayonida izchil takomillashib borishini taqozo etadi. Talabalarda emotsional intellektning barqaror shakllanishi ularning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi, kasbiy faoliyat samaradorligi va hayotiy maqsadlariga erishishida muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пономаренко Л.П. Последствия когнитивно-эмоциональной недифференцированности семейных отношений для развития личностной автономии // Психология и жизнь: психологические проблемы современной семьи: материалы V Международной научной конференции. – Минск, 2011. – С. 226–230.

2. Буланова Г.В. Эмоциональное состояние студентов как фактор их учебной успешности: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Л., 1989. – 16 с.

3. Васильев И.А. Роль интеллектуальных эмоций в регуляции мыслительной деятельности // Психологический журнал. – 1998. – Т. 19. – № 4. – С. 49–60.

4. Вундт В. Основы физиологической психологии // Естествознание и психология. – Вып. 1. – СПб.: Типография П.П. Сойкина, 2007. – С. 44–82.

5. Колесников В.Н. Эмоциональный фактор в структуре личности и учебной деятельности студентов: автореф. дис. ... канд. психол. наук. – СПб., 1997. – 16 с.